

# 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

## SHE'RIYAT TILIDA “DIL” VA “JON” KONSEPTI ASOSIDA SHAKLLANGAN QO’SHMA SO’Z VA IZOFALI BIRIKMALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Akramova Surayo Renatovna,  
BuxDPI boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti (PhD)  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.004>

*Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida mayjud bo‘lgan “dil” va “jon” konsepti asosida shakllangan qo’shma so’z va izofali birikmalarning uslubiy xususiyatlar she’riyat tahlili asosida yoritib berilgan.*

*Аннотация. В данной статье на основе анализа поэзии поясняются стилистические особенности сложных слов и изофазных соединений, образованных на основе существующих в узбекском языке понятий «язык» и «душа».*

*Annotatsion. This article, based on an analysis of poetry, explains the stylistic features of complex words and isophase compounds formed on the basis of the concepts of “language” and “soul” existing in the Uzbek language.*

Bugungi kunda “konsept” atamasiga tilshunoslikda turlicha yondashilmoxda. Ya’ni A.P.Babushkin. N.N.Boldirev. V.N.Teliya, E.S.Kubryakova, I.A.Sternin kabi tilshunos olimlarning kognitiv tilshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha olib borgan izlanishlarida konsept – ong birligi, erishilgan bilim, yuzaga kelgan tajriba, muayyan madaniyatga taalluqli bo‘lgan tasavvur va bilimlar yig‘indisi sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda o‘zbek tilshunoslida “konsept” atamasi haqida yangidan yangi qarashlar ifoda etila boshlandi. A.A.Abdudauzizov, O’.Q.Yusupov, A.E.Mamatov, Sh.S.Safarov, D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva, D.B.Agzamova, M.N.Djusupov, N.A.To‘xtaxo‘jayeva kabi tilshunos olimlar asarlaridagi turlicha qarashlar fikrimizni dalillaydi. Shu qarashlarga tayanib aytish mumkinki, konsept idrok etiladigan, ong ostida mayjud bo‘lgan tushunchaning umumiy nomlanishidir. Hozirgi kunda har qanday tilning o‘ziga xos madaniy, milliy, an’anaviy xususiyatlarini olamning lisoniy manzarasi va konsept tushunchalariga bog‘lab tadqiq etish o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Chunki til – ijtimoiy hodisa. Unda xalqning barcha osori atiqalari, ma’naviyati, madaniyati o‘z ifodasini topadi. Insonning his-tuyg‘u, ichki kechinmalarini ifodalovchi lingvistika sohasida lingvomadaniyat yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan til birliklarining etik va lingvosemantik talqin etilishi bugungi kunda eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. O‘zaro qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlarning milliy lisoniy tafakkurida inson tuyg‘ularining verballahsuvi va qadriyatları qiyosan o‘rganilayotgani diqqatga sazovordir. Insoniy tuyg‘ularni ifoda etishda muhabbat, mehr, sadoqat, chin do‘slikni o‘zida saqllovchi yurak, qalb, ko‘ngil, dil, jon kabi lingvomadaniy konseptlarning tillararo verballahuvini tafakkurdagi etik aksiologyyaning bir jihatni sifatida solishtirib tadqiq etish, kognitiv, lingvopragmatik aspektlarda o‘rganish zamonaqiy tilshunoslikningdiqqat-markazida turgan masalalardan biridir. Tilshunos olim N.Mahmudov o‘z qarashlarini shunday ta’kidlaydi: “... Asrlarni allalagan yurtimizda axloq benihoya serqamrov, mag‘zi to‘q, qiyosi yo‘q tushuncha sifatida ardoqlab kelinadi. Ma’nili va bejirim gapira bilish, nutq daryosidagi maqbul va nomaqbtl to‘lqinlarni ilg‘ay olish, so‘zning orqa-o‘ngini, munosib o‘rnini farqlay bilish, nutqiy fahmu farosat va nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma’naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan” .

O‘zbek shoiri Jamol Kamol she’rlari misolida birgina “dil” leksemasining turli semalarni ifodalab, o‘ziga xos tarzda ma’no kasb etishi kuzatiladi.

Shon ketar, davlat ketar, dil ketar,  
O‘zlik ketar, shavkat ketar, til ketar...

O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha izohlanadi: “dil” fors-tojikcha so‘z bo‘lib, yurak, qalb, ko‘ngil. 1. ayn.yurak. ya’ni dil urishi. 2. ko‘chma ma’noda kishining ichki ruhiy dunyosi, ichki his-tuyg‘ularining markazi, ramzi; ko‘ngil, qalb; 3.ko‘chma. ko‘ngildagi narsa( tilak, maqsad, o‘y, fikr); 4. ko‘chma. Kishining xotiri, es, yod, xayol; ko‘ngil”. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, “dil” polisemantik leksema bo‘lib, o‘zida bir nechta semalarni tashiydi va turli uslubiy funksiyalarni bajaradi, bu, albatta, nutq vaziyatiga qarab baholanadi. Yuqoridaq misrada “dil ketar” birikmasi o‘zining asl ma’nosini “yurak”, ayni damda, sinekdoxa asosida “inson” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. O‘z navbatida umumnutqda “dil ketar” frazemasi ham keng qo‘llanib, “havaslanmoq, ko‘ngli sust ketmoq, istamoq” ma’nolarini ifodalab keladi. Keltirilgan frazema tarkiban bir butunlik sanalib, tilshunoslikda yaxlit semantik birlik sifatida qaraladi. Bu holat lingvistikada juda keng o‘rganilgan bo‘lib, dastlab frazemalarning umumnazariy jihatlari fransuz tilshunoslida olim Sh.Balli tomonidan semantik xususiyat frazemalarning mutlaq belgisi sifatida tadqiq etilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunoslida bu boradagi tadqiq

Sh.Rahmatullaev tomonidan boshlab berilgan. Olimning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasida frazemalarning grammatick tabiatini, ularning lug‘aviy birlik sifatida o‘rganilishi zarurligi qayd etiladi. Ta’kidlanganidek, “dil ketar” yaxlit bir semantik butunlik sifatida ham mayjud bo‘lib, shoir misralarida esa u erkin birikuqli gap holatida aks etgan. Ya’ni davlat ham ketar, shon-shavkat ham ketar, insonni jismidagi yurak-dili ham tark etar ma’nosini ifodalamoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra har bir so‘z tahlil etilayotganda, matndan ajratilgan holda emas, aynan matn va matnning mazmuni, muallifning g‘oyaviy maqsadlari bilan bog‘liq holatda tahlil etilishi lozim. Tilshunoslikda so‘zlarning mazmun-ma’noviy silsilasi, semantik tabiatini belgilash uchun har bir so‘zning lingvopoetik xususiyatlarini ham astoydil tadqiq etish zaruriyati vujudga keladi. Chunonchi, “... semantik tahlilga tortilayotgan material ko‘lami to‘xtovsiz o‘zgarib turibdi, u fonematik sath birliklardan boshlanib to yaxlit matnlar hududi, ba’zan matnlararo munosabatlarni ham qamrab olmoqda”. Bundan kelib chiqadiki, poetik nutqda so‘zlar leksik-semantik tadqiqqa tortilar ekan, albatta, matndagi assosiativ-distributiv munosabati va ijodkor yashagan davrdagi madaniy-ijtimoiy hayot muhitiga tayangan holda ma’no ottenkalarini aniqlash zarurdir. Poetik nutq bo‘ladimi, prozaik nutqmi, olim L.Bluemfeld aytgan fikrlarga tayansak, foydadan xoli bo‘lmaydi: “Har bir lisoniy shakl ma’nosiga aniq ilmiy tavsif berish uchun so‘zlovchi atrofidagi olamning barcha narsa-hodisalari haqida muayyan ilmiy ma’lumotga ega bo‘lishimiz lozim”. Har qanday so‘z o‘ziga xos haqiqiy, asl xususiyatlarini lirik matnlarda namoyon etadi. Mana shu jihat lug‘aviy semantik birliklarni tadqiq etishda, ya’ni so‘zlarni turlicha talqin qilishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero, “poeziyada prozaga nisbatan so‘zning semantik jihatdan faolligi, ma’nolar silsilasini yaratishda o‘rnii beqiyosligi va imkoniyatlarining kengligi namoyon bo‘ladi”.

“Dil” leksemasi umumnutqda ham, umuman badiiy adabiyotda ham asosan insonning tana a’zosi, ya’ni yurak ma’nosida keng qo‘llanadi. Kuzatishlarimiz natijasi o‘laroq, “dil” leksemasi juda ko‘p qo‘llanadigan birliklar sirasiga kirishi ma’lum bo‘ldi. Ammo matn talabi bilan turlicha ma’no kasb etishga xizmat qilgan. Birgina so‘zni turli ma’nolarda jilolantirish, albatta, shoirning ziyrak nigohi va mahoratidan dalolatdir.

Suqlanaman tunlarimga,

Yog‘dular toshqin,

Entikaman, o‘tli dilda

Orzular toshqin.

“O‘tli dilda” birikmasida “o‘t” birligi “dil” leksemasiga nisbatan metaforik sema tashib, “yoniq, jo‘shqin, otashin” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Ko‘zlarim sevinchdan yarqirayotir,

Qanot bog‘layotir dilbanding joni.

“Dilband” birligi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da fors-tojikcha so‘z bo‘lib, “dilni tortuvchi, ko‘ngilni bog‘lovchi; aziz; ko‘ngli birovga bog‘langan, maftun bo‘lib qolgan; dilni o‘ziga tortuvchi, maftun etuvchi” ma’nolarini ifodalab, ko‘chma ma’noda esa “suyukli bola, farzand” semalarini ifodalashi aytildi. Biz tadqiq etayotgan misrada esa shoir buyuk tuproq, ya’ni ona yurt tuprog‘iga nisbatan o‘zini eng suyukli farzand deb bilishi, buyuk tuproq ozodligi xabaridan dilband-farzandning joni qanot bog‘layotgani, sevinchdan ko‘zları yonib turgani aytilgan. “Jon” vujuddan ajraganda ruhga aylanishi, uchishi ilmiy va badiiy adabiyotda ko‘p bor aytilgan. Shoir jonning uchishini ifodalar ekan, “jon” leksemasini “ruh” leksemasi o‘rnida qo‘llaydi va jonning yurakdagagi suvaydoda bo‘lishini anglagan ijodkor sifatida so‘zlarni iste’foda etadi. Chunonchi, “jon” so‘zi o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “ruh, hayot, kuch-quvvat, ya’ni diniy-ibtidoiy tasavvurlarga ko‘ra inson va hayvon tanasida bo‘ladigan uyqu chog‘ida yoki o‘lganida tanadan chiqib ketadigan alohida ko‘zga ko‘rinmas, ilohiy kuch, quvvat, ruh; sezuvchi, his etuvchi tan, badan; kishi, odam; hayot-mamot, tiriklik”; birqator aniqlovchilar bilan qo‘llanib “bosh, jussa” ma’nolarini ham ifodalab, sinekdoxa asosida ma’no tashishi ham kuzatiladi. Bundan tashqari “kuch-quvvat, mador”; yaxshi ko‘radigan, sevimli, yoqimli kishi yoki narsa haqida ishlatalidigan so‘z hamdir. Masalan, “olma uning joni” kabi jumlalarda ibora bo‘lib kelishi, sevimli kishilarga murojaatlarda so‘zlovchingning ularga yaqin munosabatini, begonalarga nisbatan xushomad yoki hurmatni (“opasi”, “akasi” va shu kabi so‘zlar bilan (jon akasi, opasi jonidan), ba’zan yolg‘iz “jonidan” shaklida so‘zlovchingning tinglovchiga yaqin munosabatini, erkash, xushomad (gaapiring, jonidan); hayot manbayi, hayot bag‘ishlovchi narsa (suv ekinning joni); biror ish yoki sohada muhim o‘rin egallovchi, ilhomlantiruvchi, tashkilotchi shaxs (shu universitetning joni kabi) ma’nosini anglatadi; murojaat qilinayotgan shaxsni bildiruvchi so‘zdan oldin kelib, murojaatdagi iltimos, iltijo ma’nosini kuchaytiradi (jooon domlajon), shaxs otlariga qo‘shilib erkash, hurmat ma’nosini bildiradigan lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha vazifasini (Dilbarjon) ham bajaradi. Aksariyat hollarda undalma, yoyiq undalmaning tarkibiy qismi bo‘lib kelganini ko‘rish mumkin!

Ko‘rinadiki, misrada moslashuvli birikma tarzida “dilbanding joni” birligida “dilband” vatanning bir bo‘lagi, suyumli farzand, fuqaro, “jon” so‘zida esa ruh, borliq ma’nolari etakchilik qiladi. Shoir o‘zbek tilining eng sara, eng “qaymoq” so‘zlarini o‘z o‘rnida qo‘llab, tilimizning nafosatini armug‘on etadi.

Koshki, ona, men ham dil gavharidan

Ufqingga bir dona chiroq yoqolsam.

Shoir Vatanga, yurt tuprog‘iga ona murojaatini qo‘llamoqda. “Dil gavhari” birikmasida “dil” o‘zining asl ma’nosida “qalb, yurak” ma’nosini ifodalagan. “Gavhar” fors-tojikcha so‘z bo‘lib, “marvarid, qimmatbaho tosh”, taroshlab sayqlar berilgan olmos yoki javhar ma’nosini beradi. Ko‘chma ma’noda esa “juda nodir, bebaho” semasini tashib, misrada matn mazmunidan kelib chiqib, “dil gavhari” shoир qalbidagi eng aziz, bebaho deb bilgan injusi, balki so‘zi ma’nosini ifoda etadi. Shoир qalbidagi eng qimmatli narsa bu – so‘zi, Alloh tomonidan in’om etilgan ilhom. Dil gavhari – shoирning dilda asralgan mehri. Ko‘rinadiki, shoир qo‘llagan birikma o‘zida qator ma’nolarni mujassam etgan, har bir she’rxon o‘zicha idrok etadigan tarzda se’rma’nolilik kasb etgan. Aynan shu jihat she’r badiiyatini yuksaltiradi. Yuqoridagi satrda “yurak” yoki “qalb gavhari” deyishdan ko‘ra “dil gavhari” deb keltirish she’r vazniga, tavze’ yaralishiga ko‘ra, mazmun kuchayishi jihatidan ham ko‘proq moslik kasb etgan. Gavharning qorong‘ulikni ravshanlashtira oladigan quchi borligi shoирga uni chiroq qilish imkonini bergen.

Karashmasi yuraklarni

Yoqar Sebiston...

Mehri dilim ayon etgali

Asta-asta tashlayman odim...

Shoir Tojikiston taassurotlarini qalamga olib, Sebiston shahri haqida yozarkan, “mehri dilim” izofali birikmasini qo‘llaydi. Fors-tojik tilida so‘z birikmalari tarkibidagi so‘zlar tartibi doim qat’iy bo‘lib, izofali birikmalarda ham birinchi o‘rinda aniqlanmish, keyingi o‘rinda aniqlovchining kelishi kuzatiladi. Bunday tartibning buzilishi birikma mazmunining buzilishiga olib keladi. O‘zbek adabiy tilida aniqlovchili birikmalarda so‘zlar tartibi fors tilidagi aniqlovchili birikmalardagi so‘z tartibining aksidir. O‘zbek tilida aniqlovchi oldin, aniqlanmish keyin joylashadi. O‘zbek adabiy tilida ham aniqlovchi va aniqlanmish tartibini o‘zgartirsak, aniqlovchi va aniqlanmish munosabatidan ega va kesim munosabatiga o‘tadi. Shu sababdan tilimizda izofali birikma ishlatiladi. Tilimizda aniqlanmishga faqatgina sifat bilan ifodalangan aniqlovchigina emas, ot bilan ifodalangan aniqlovchi ham bog‘lanib, egalilik, qarashlilik ma’nolarini ifodalaydi. Izofali birikmadagi aniqlovchi ot va kishilik olmoshlari bilan ifodalangan bo‘lsa, u holda birikma aniqlanmish bildirgan narsaning ma’lum shaxsga xosligini, mansubligini bildiradi. Bu fors tilida изофэйэ мўлки deb nomlanadi . “Mehri dilim” izofasida ham aniqlovchi ot bilan ifodalangan bo‘lib, aniqlanmish bildirgan narsaning ma’lum shaxsga mansubligini ifodalab kelmoqda. “Qalbdagi mehrni ayon etmoq uchun asta odim tashlayman”, deydi shoир. Fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan o‘zlashma qatlama mansub “mehr” semasi poetik nutqda bir necha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Bu so‘z “sevgi, muhabbat, moyillik” ma’nosida keng ishlatiladi. Insonning o‘z tug‘ishganlariga, umuman, yaqin kishilariga samimiyl muhabbat, yaxshi ko‘rish tuyg‘usini ifodolovchi bu so‘z umumnutqda “shafqat, rahmdillik” ma’no ottenkalarini tashiydi. Bundan tashqari “Mehr” “erony quyosh yilining ettinchi oyi” “quyosh”, “oftob” ma’nosida ham qo‘llaniladi. Tahlilga tortilgan misralarda esa “mehr” leksemasi “muhabbat”, “moyillik” ma’nosini anglatgan.

Ona dedim, men ham senga

Bir porayi dil...

“Pora” leksemasi o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, shakldoshlik xususiyatiga egadir. Ya’ni “pora” “bo‘lak, laxta, parcha”; “hissa, ulush”; “kesilgan, yirtilgan”; “parchalangan narsaning bir qismi”. Bunday tashqari ushbu so‘zning “mayda pul, chaqa”; “rishva, pora”; “xayr-sadaqa” ma’nolari ham mavjud bo‘lib, she’riy nutqda “yaralamoq, tilmoq” metaforik ma’noni ifodalab kela oladi. Misradagi “porai dil” izofali birikmasida “yaralangan, tilingan dil” ma’nosini qo‘llangan bo‘lishi mumkin. Shunday tushunilsa, misralar mazmunida uslubiy nuqson yuzaga kelmaydi. “Porayi dil” izofasida “dil”ga nisbatan “pora” semasi metaforik ma’no yuklasa, “men ham senga Bir porayi dil” misralaridagi izofa to‘lig‘icha sinekdoxa asosida ma’no ko‘chish orqali shoирning o‘zini anglatib kelmoqda. Ammo “men ham senga Bir porayi dil” misralaridagi izofali birikma “men ham sening dilporang, ya’ni dilingning bir bo‘lagi” degan ma’noni ham anglata oladi va she’rxonning bunday tushunishi ham o‘zini oqlaydi. Ko‘rinadiki, izofali birikmani “dilporang” deb ishlatmaganiga keyingi satrlardagi qofiya sabab bo‘lgan, bizningcha. Ayni ayni damda, ikki ma’noni berish imkoniyati yuzaga kelgani ham shoирning so‘z qo‘llashdagi mahoratidan dalolatdir.

Uzoqda ham qo‘ymading xoli,

O‘rab oldi dilbar xayoling.

“Dilbar” so‘zi fors-tojikcha bo‘lib, “dilni tortuvchi, jalb etuvchi, yoqimli, dilni o‘ziga tortadigan, dilrabo” ma’nolarida qo‘llanadi. “Xayol” leksemasining aniqlovchisi vazifasini bajarib, “xayol” so‘ziga nisbatan metaforik ma’no anglatgan va “xayol” leksemasi bilan birikuv hosil qilib, “dilni o‘ziga tortadigan, yoqimli” ma’no ottenkasini kuchaytirgan holatda jonlantirish san’atini yuzaga keltirgan hamda shu asosda ham fikrni boyitgan, ham misra badiiyatini oshirgan.

Shu gavharni shu'lalarga tutaman,

Dil toridan dilbar sado kutaman.

“Tor” leksemasi shakldosh bo‘lib, bu misrada uning fors-tojik tilidan o‘zlashgan “ip, arqon, tola; soch tolasi;

dutor ipi; cholg‘u asbobining tebranib tovush chiqaradigan ipi” ma’nosi asosiy bo‘lib, “dil tori” birikmasida torga nisbatlanuvchi metaforik ma’no kasb etgan. Shoirning mahorati shundaki, dil toridan chiqadigan sadoga nisbatan “dilbar” aniqlovchisini o‘z o‘rnida qo‘llay olgan, ishtiqoq va tavze’ san’atini paydo qilgan. Demak, shoir so‘zni mohirlilik bilan qo‘llay olsa, badiiyatning oshishiga o‘z-o‘zidan imkoniyat paydo bo‘lishi tabiiy.

“Dil” “qalb”, “ko‘ngil” mavhum tushunchalariga ma’nodosh so‘z bo‘lib, ko‘plik shaklini qabul qilganda ma’no kuchaytirish ottenkasi yuzaga chiqadi. Shoir she’rlarida bot-bot tilga olinadigan “dil” leksemasi biz tadqiq qilgandan ham ko‘proq imkoniyatlarga ega, biz idrok etadigan tushunchalar olamidan ham kengroq va boyroq ma’nolarni tashiydi. Shoir ba’zi o‘rinlarda “dil” leksemasini vazn sabab tanlaydi, chunki “ko‘ngil” leksemasi ikki hijoga teng. “Qalb” so‘zi bir hijoli sifatida “dil” leksemasiga mos bo‘lsa-da, salbiylik ma’nosi borligiga ko‘ra shoir “dil”ni afzal biladi. Ayrim o‘rinlarda qofiya sabab shoir fors-tojikcha so‘zni tanlaydi. Ko‘rinadiki, “dil” konsepti orqali barchaga ma’lum, dastavval jismimizda dinamik holatni yuzaga keltiradigan eng muhim a’zo – yurakni, irfoniy yoki mavhum tushuncha sifatida hissiyot va hayot, mador, dard va g‘am manbasi inson qalbi, jonu tanning toji, javhari ma’nosini ifoda etadi. Jamol Kamol she’rlarida “dil” va “jon” konseptlari tagzaminida voqe’likka daxldor kechinmalar, hissiy belgilarni mujassamlashtirilgan va u insoniy hissiyotlarni o‘zida ifoda etgan.

Tilimizda fors-tojik tilidan o‘zlashgan “dil” lug‘aviy birligi o‘zbek tilidagi “qalb, yurak, ko‘ks, ko‘ngil” birliklariga sinonim sifatida qaraladi va asosan, bir-birining o‘rnida qo‘llanishi mumkinligi aytildi. Ammo nazarda tutilayotgan konseptlardagi inson tuyg‘ulariga xos qadriyat sifatida qaralgan verbal munosabatlardan anglashiladiki, “mehr-muhabbat, do‘slik, baxt, qalb-yurak” kabi konseptlarning verballahuvida inson tuyg‘ulariga xos qadriyatli tarkibiy qism mavjud. Demak, yuqorida qayd etilgan inson tuyg‘ulari aks etgan konseptlar qadriyat tushunchasi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jamol Kamol. Asr bilan vidolashuv. Saylanma. Olti jildlik. I jild.–Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018. –B.37.
2. Mahmudov N. Til mavqeyi – el mavqeyi. “Yoshlik” jurnalı, 1988- yil, 6-son.
3. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2013. – B.27.
4. Akramova S.R. Jamol Kamol she’riyatida tojikcha-o‘zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Buxoro. –B–130.